

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 15 - mart

91-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'1 tumani "Oltinko'1" OFY hududidan  
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'1 tumani hokimligining 2022-yil 14-oktabrdagi 01-03/05-10/304-sonli buyurtma xatini inobatga olib, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunlariga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qonliko'1 tumani "Oltinko'1" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,06 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qonliko'1 tumani Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limiga bolalar maydonchasini qurish uchun qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibdadoimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.

3. Qonliko'1 tumani Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (E.Dauletov)ga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda:

- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash vazifalari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi boshqarmasi (U.Jalelov) mazkur qarorga muvofiq qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o‘rinbosari E.Atashov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**




**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023 yil 15 martdagi  
91-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonliko'l tumani, "Altinkol" OFY Qoratol ko'chasida joylashgan bolalar maydonchasi qurilishi uchun ajratilgan yer uchaskasining

**T A R X I: M-6 1:1000**



Yer uchaskasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Qishloq xojaligida foydalanilmaydigan yerlar bolib, sharqdan Qoratol kóchasi bilan, g'arbdan bush er uchaskasi bilan bilan, shimoldan bush er uchaskasi bilan, janubdan bush er uchaskasi bilan.

**WGS-84 Koordinatasi**

1. 42°46'6.82"C 59° 8'30.78"B	3. 42°46'6.92"C 59° 8'29.24"B
2. 42°46'7.40"C 59° 8'30.31"B	4. 42°46'6.37"C 59° 8'29.76"B

Tuman markazidan 15 km. radius masofada

Yer uchaskasi maydoni (ga): 0,06 ga

Yer fondi: Qishloq xojaligida foydalanilmaydigan yerlar.

Ta'qiqlanganligi: Yo'q.

Qaysi maqsadda foydalansa bo'ladi: **bolalar maydonchasi qurilishi uchun.**

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar.

Ball boniteti: Baholanmagan

Kadastr raqami: 23:13:05:02:01:1113